


TASHQI SAVDO AYLANMASI

2018 yil yanvar-noyabr

Toshkent shahrining tashqi savdo aylanmasi 2018 yil yanvar-noyabr oylarida 8863,5 mln. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 2557,5 mln. AQSh dollarini va import 6306,0 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Tashqi savdo aylanmasi saldosi – 3748,5 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Toshkent shahar tashqi savdo tovar aylanmasi

(mln. AQSH dollar)




Toshkent shahrida so`nggi yillarda hukumatimiz tomonidan eksportni qo`llab-quvvatlash, import o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o`zgarishga erishildi. Jumladan, 2018 yilning yanvar-noyabr oylari davomida eksport hajmi o'tkan yilning mos davriga nisbatan 5,0 % ga o'sdi. Joriy yil mobaynida mamlakatimizning tashqi iqtisodiy sohasida tashqi savdo hajmi va eksportni tizimli ravishda jadal oshirishga qaratilgan tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirildi, xususan, valyuta siyosati liberallashtirildi, ma'muriy to'siqlar bartaraf etildi, eksport qilinadigan meva-sabzavot mahsulotlari uchun narxlarni shakllantirish va to'lovning bozor mexanizmi joriy qilindi.

Tashqi savdo

MDH davlatlari orasida Rossiya va Qozog`iston, Ukraina va Tojikiston davlatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 36,0 foizni tashkil qildi, boshqa davlatlar orasida Xitoy, Turkiya, Germaniya, Afg`oniston, Latviya, Litva. Xindiston, va AQSH davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 43,6 foizni tashkil qildi.

2018 yil yanvar-noyabr oyida Toshket shahri tashqi savdo aylanmasida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda




2018 yil yanvar-noyabr oyida tashqi savdo aylanmasi saldosini – 3748,5 mln.AQSh dollari tashkil qildi, shundan MDH davlatlari bilan –1467,2 mln.AQSh dollari va boshqa davlatlar bilan –2281,3 mln.AQSh dollari tashkil etdi.

2018 yilning yanvar – noyabr oyida shaharning tashqi savdo aylanmasi quyidagi ma'lumotlarda tavsiflanadi:

| | mln. AQSh dollari | o'tgan yilga nisbatan foizda | umumiy hajmga nisbatan foizda |
|---|-------------------|------------------------------|-------------------------------|
| Eksport | 2557,5 | 105,0 | 100,0 |
| oziq-ovqat mahsulotlari | 111,2 | 157,7 | 4,3 |
| kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar | 142,5 | 245,8 | 5,6 |
| energiya manbaalari va neft mahsulotlari | 152,0 | 118,4 | 5,9 |
| qora va rangli metallar | 69,8 | 73,0 | 2,7 |
| mashina va asbob-uskunalar | 81,5 | 64,8 | 3,2 |
| xizmatlar | 1760,1 | 104,1 | 68,8 |
| boshqalar | 240,4 | 90,3 | 9,5 |
| Import | 6306,0 | 119,9 | 100,0 |
| oziq-ovqat mahsulotlari | 767,1 | 114,4 | 12,2 |
| kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar | 1279,6 | 104,7 | 20,3 |
| energiya manbaalari va neft mahsulotlari | 102,8 | 143,6 | 1,6 |
| qora va rangli metallar | 736,8 | 89,0 | 11,7 |
| mashina va asbob-uskunalar | 2218,7 | 146,0 | 35,2 |
| xizmatlar | 425,5 | 119,3 | 6,7 |
| boshqalar | 775,5 | 131,2 | 12,3 |

Tashqi savdo — bir mamlakatning boshqa mamlakat yoki mamlakatlar bilan olib boradigan savdosi. Mamlakatdan tovarlar chiqarish (eksport) va mamlakatga tovarlar kiritish (import) dan tashkil topadi. Eksport va import yigʻindisi mamlakatning Tashqi savdo aylanmasini tashkil etadi.

Tashqi savdo aylanmasi hajmi foizda




Tashqi savdo aylanmasi oʻsish surʼati eng yuqori tumanlar Shayxontoxur 149,8 %, Uchtepa 143,5 %, Mirzo-Ulugʻbek 135,6 % tashkil etkan. Toshkent shaharida tashqi savdoni qoʻllab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash boʻyicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2018 yil yanvar-noyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 39,0 %ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 25,5 % ga oshdi. 2018 yil yanvar-noyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida Boshqa xorijiy davlatlarning ulushi 61,0 % ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 9,4 % ga oshdi.

EKSPORT


Toshkent shahrining eksport tarkibida qariyb barcha tovarlar va xizmatlar guruhlari bo'yicha o'sish kuzatilmoqda. Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar eksporti o'tgan yilning shu davriga nisbatan 245,8 foizga, oziq-ovqat mahsulotlari 157,7 foizga, energiya manbaalari va neft mahsulotlari 118,4 foizga o'sgan.

Eksport tarkibi, foizda




2018 yil yanvar-noyabr oylarida eksport hajmi 2557,5 mln. AQSh dollarga teng bo'ldi. Eksport hajmining o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,0 % oshdi. 2018 yil yanvar-noyabr oylarida jami eksportda MDH davlatlarining ulushi 39,0 %ni tashkil etdi hamda eksportda o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,2 % ga oshdi. Boshqa xorijiy davlatlarning eksportda ulushi 61,0 % ni tashkil etdi hamda eksportda o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,3 % ga oshdi.

Eksport hajmida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda




Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi Rossiya Federatsiyasi va Afg'oniston Respublikasi hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 60,9 % ini tashkil qiladi. Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya Federatsiyasiga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Eksport (lot. — olib chiqaman, chetga chiqaraman) — tovarlar, xizmatlar, investitsiya, qimmatli qogʻozlar, texnologiyalar va boshqalarni tashqi bozorga chiqarish. Tovarlarini bir mamlakat orqali olib oʻtish (tranzit) va bir mamlakatdan olib kelingan tovarlarni boshqa mamlakatlarga sotish uchun chiqarqsh (reeksport) ham eksportga kiradi.



Eksport oʻsish surʼati eng yuqori tumanlar Shayxontoxur 205,2 %, Olmozor 124,6 %, Yashnobod 114,9 % tashkil etkan. Tovar va xizmatlar eksporti oʻsish surʼatlarining tahliliga asosan, 2018 yilning noyabr oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 5,0 %ga oshgan.


IMPORT



- oziq-ovqat mahsulotlari
- kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar
- energiya manbaalari va neft mahsulotlari
- qora va rangli metallar
- mashina va asbob-uskunalar
- xizmatlar
- boshqalar

Import tarkibining umumiy hajmidan 35,2 % foizni mashina va asbob-uskunalar va 20,3 % foizini kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar tashkil qiladi. 2018 yilning yanvar-noyabr oylarida import hajmi 6306,1 mln. AQSh dollariga teng bo`ldi. O`shish sur`ati o`tgan yilning mos davriga nisbatan 19,9 % oshdi. 2018 yil yanvar-noyabr oylarida jami importda MDH davlatlarining ulushi 39,1 %ni tashkil etdi hamda eksportda o`tgan yilning shu davriga nisbatan 39,8 % ga oshdi. Boshqa xorijiy davlatlarning eksportda ulushi 60,9 % ni tashkil etdi hamda eksportda o`tgan yilning shu davriga nisbatan 9,9 % ga oshdi.


Import hajmida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda



Rossiya, Xitoy, Qozog`iston, importda asosiy hamkorlar hisoblanib, ularning jami importdagi ulushi 54,5 foizni tashkil qildi. Yuqorida qayd etib o`tilganidek, import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilyotgan mashina va asbob-uskunalar hamda kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar asosan manashu davlatlarga tugri keladi. 2018 yilning yanvar-noyabr oylarida Toshkent shahriga 100 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 5 ta eng yirik bo`lgan Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Germaniya, Qozog`iston va Turkiya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 4073,5 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 64,6 % ini tashkil qiladi

Import (ing . import — keltirish, olib kelish) — mamlakatning ichki bozorida sotish uchun, shuningdek, ularni uchinchi mamlakatga oʻtkazib yuborish uchun chet el tovarlari, xizmatlar, texnologiyalar, kapitallar, qimmatli qogozlar va boshqalar keltirish. Yuklar, passajirlarni chet eldan tashib keltirish, sayyohlik, sugʻurta, ilmiy-texnika bilimlari va boshqa xizmatlar harajatlari ham import tarkibiga kiradi.

import



Import oʻsish surʼati eng yuqori tumanlar Mirzo-Ulugʻbek 167,1 %, Bektemir 161,9 % Uchtepa 144,7 %, ni tashkil etkan.

